

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmirmayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
<i>Амантурова Дилбара Кыдыкбековна</i>	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
<i>Асрарова М.У.</i>	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
<i>Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</i>	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
<i>Karimov Inomjon Ortikbaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
<i>Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich</i>	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
<i>Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINING ROLI	264
<i>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMI ORQALI RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH	270
<i>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ И СТРАХОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКИНГА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	275
<i>Бахтиёров Худайберган Хамдам угли</i>	
DOIMIY BO'LMAGAN KUCH TA'SIRIDA DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONLI TAHLIL QILISH.....	282
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Isomova Sabohat Islom qizi</i>	
YOUTH ENTREPRENEURSHIP AS A FACTOR OF STRUCTURAL ECONOMIC TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN.....	290
<i>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</i>	
МОДЕЛИРОВАНИЕ САМОВОЗБУЖДЕНИЕ НЕЯВНОПОЛЮСНОГО СИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА ПРОДОЛЬНО-ПОПЕРЕЧНОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ.....	298
<i>Пирматов Нурали Бердиёрович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Бердиёров Улугбек Нурали угли, Бердиёров Улмасбек Нурали угли</i>	
YURTIMIZDAGI EKOLOGIK SOF YOG'OCH MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN ORAYOMA KONSTRUKSIYALARINING CHO'ZILISHGA QARSHILIGI	305
<i>Yunusaliyev Elmurod Muhammadyaqubovich, Toshpulatov Ilhomjon Baxtiyorovich</i>	
AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI.....	311
<i>Aminov Hamza Husanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich, Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi</i>	
EXPLAINABLE AI YORDAMIDA SOC UCHUN TUSHUNTIRILADIGAN KIBERXAVF ANIQLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	318
<i>N.N. Jo'rayev, A.Sh. Juraboyev</i>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARINI SUV YORDAMIDA TOZALASH VA SOVITISH USULLARI TAHLILI	324
<i>Ibragimov Umidjon Hikmatullayevich, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Izomov Shahzod Niyoz o'g'li, To'yumurodov Quvonchbek Sherzod o'g'li</i>	



RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING QURILISH SOHASIGA INTEGRATSIYASI: ILG'OR XALQARO TAJRIBA	332
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
ФАКТОРЫ НАЛОГОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОБИРАЕМОСТЬ НАЛОГОВ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	339
Хакимова Ситора Ильёсжон кизи, Муталова Дилором Махамаджановна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭКСПЕРТНОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	345
Л.А. Кадырова, Б. Н. Эгамов	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI	350
G'ozdiyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLİYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MASALALARI	358
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
KONTEYNERLI TASHUVLARNING JORIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	366
Samatov G'affor Alloqulovich, Xolmatov Bekzod Nurmatovich, Toxirov Maxmudjon Murodjon o'g'li, Absattarov Isomiddin Xotam o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI BO'YICHA NOMUVOFIQLIKNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MEXANIZMI	381
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR	386
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
SIFATLI TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH VA AHOLIGA QAMROVNI TA'MINLASHDA BOSHQARUV QARORLARINING AHAMIYATI	391
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA GIPERPARAMETRLARNI MATEMATIK OPTIMALLASHTIRISH USULLARI	396
Husan Arziqulov Normurod o'g'li	
ENHANCING THE SERVICE SECTOR AS A MEANS OF CREATING EMPLOYMENT IN TOURISM INFRASTRUCTURE	401
Zarikeev Rasul Polatovich	
EXPANDING BANK CREDIT OPPORTUNITIES FOR FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	406
Isakov Janabay Yakipbaevich	
BANKS' BROKERAGE AND ADVISORY SERVICES IN FACILITATING SECURITIES TRANSACTIONS AND IMPROVING MARKET LIQUIDITY	412
Isakov Isobek Janabay uli	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ	416
Ибрагимов Мансур Ахметович	
ОПТИМИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ В УСЛОВИЯХ ПОСТРОЕНИЯ НОВЫХ ЦЕПЕЙ ПОСТАВОК	421
Маннапова Феруза Фахриддин кизи	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLİYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	428
Isroilov Obid Olimjonovich	
OZIQ-OVQAT BOZORI KON'YUNKTURASINI BAHOLASHDA KO'P OMILLI REGRESSIYA MODELINING SAMARADORLIGI	433
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	



AHOLI TURMUSH TARZINI YAXSHILASHNING ISTIQBOLLARI.....	438
Djuraeva Didora Sobirjonovna	
ZAMONAVIY MOLIVAVIY INFRATUZILMANING INSTITUSIONAL ASOSLARI: TO'LOV TIZIMLARI NAZARIYASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	441
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI MENEJMENT VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	449
Zayaviddinova Nafisa Muxammadovna	
CORPORATE GOVERNANCE, FDI, AND URBANIZATION IN THE GREEN ECONOMIC TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN	454
Ablaeva Valentina	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND MICRO-ENTERPRISE DEVELOPMENT	460
Dilafroz Kuchkorova	
LEGIRLANGAN PO'LATLARDAN TAYYORLANGAN PROKATLASH JO'VALARINI CHIDAMLILIGINI OSHIRISH UCHUN TERMIK PUXTALASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	466
Saydumarov Botir Muradovich, Berdiyev Darob Murotovich, Tashmatov Ravshan Qobilovich	
SHAMOL TURBINASINING IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATORI O'TKINCHI JARAYONLARINING TAHLILI	471
Bekishev Allabergen Yergashevich, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Yunusov Obidxon Abdivait o'g'li, Jo'rayev Doston Majid o'g'li	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	479
Babaxanova Dildora Rustamovna	
RAQOBAT USTUNLIGIGA ERISHISHDA ZAMONAVIY MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	485
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARI, ULARNING MOLIVAVIY HISOBOTLARI VA AUDITIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	490
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
EFFICIENCY OF IMPROVING THE IT SERVICES EXPORT	494
Uzakov Ortik Shaymardanovich	
CHORVACHILIKDA ILK VETERINARIYA XIZMATI TARIXI: QADIMGI O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	499
Sayfudinova Djamila Badridinovna	
AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHGA BAG'ISHLANGAN DASTLABKI ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING TAHLILI	503
Xamroyev Anvar Ashurovich	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI HAMDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	508
A.A.Abduvoxidov	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	518
Turmanqulov Norpo'lat Sa'dullayevich	
PERFORMANCE APPRAISAL FAIRNESS AND EMPLOYEE OUTCOMES IN UZBEKISTAN'S EDUCATIONAL INSTITUTIONS: A QUANTITATIVE INVESTIGATION	525
Farida Nishanova	
SANOAT KORXONALARIDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMLARINING ISHLAB CHIQARISH JARAYONIGA TA'SIRI	535
O'.M. Baytanov	



DIGITAL METHODS FOR MONITORING HAND HYGIENE AND AUTOMATIC NAIL SEGMENTATION USING COMPUTER VISION TECHNOLOGIES	540
Shavkat Shukhratovich Azimov, Temurbek Zokir Ugli Daminov, Durdona Nurjonovna Rasulova, Dilorom Umrzakovna Nalibaeva	
MATLAB-BASED OPTIMIZATION OF METHANE FEED INTAKE IN A GTL PLANT FOR SYNTHETIC FUEL PRODUCTION.....	545
U.T. Beshimov, U.R. Azamatov, A.G. Makhsumov, E.E. Mashaev	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОПТИМАЛЬНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ВЛОЖЕНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЗНАЧИМЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	554
Зайналов Ж.Р. , Абдуллаева С.Ш., Нурмухамедов А.М.	
INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA ONLAYN TEST VA AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMLARI: INNOVATION METODLAR, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA DOLZARB MUAMMOLAR TAHLILI	561
Nasriddinov Zaynoddin Xusniddin o'g'li, Sayidov Nozimjon Abdunosirovich	
SERVOMOTORLARNING XARAKTERISTIKALARI	565
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Egamov Akmal Mamarasulovich, Mamarasulov Nodir Akmal o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	572
O'rinov Komiljon Kozimovich	
MAISHIY XIZMAT KO'RSATISHDA SIFAT NAZORATINI OSHIRISHNI RAQAMLASHTIRISH YO'LLARI.....	576
Meliyev X.T.	
INVESTIGATION OF THE EFFICIENCY OF FATS AND OILS REMOVAL FROM WASTEWATER GENERATED BY PUBLIC CATERING ENTERPRISES	585
Durdona Obutjonova, Xayrullo Ibroximov, Ahmadjon Ibadullaev, Umar Chorshanbiev, Babaev Askar	
INSON KAPITALINING IQTISODIY MAZMUNI, UNI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	591
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
HUDUDLARDA MOLIAVIY INKLYUZIVLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINING MOLIAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI.....	596
Azlarova Mushtariybegim Abror qizi	
NORASMIY BANDLIK VA DAROMADLARNI SOLIQQA TORTISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI	600
Bozorova Ozoda Raximovna	
DAVLAT KORXONALARINI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) ORQALI XUSUSIYLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ("UZAUTO MOTORS" VA "O'ZBEKTELEKOM" AJ MISOLIDA).....	605
Razikov Ulug'bek Zaripovich	
QURILISHDA INNOVATION FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA TURLARI	611
B.K.Abdusamatov, I.A.Yusupov	
ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОВ ЗАКРЕПЛЕНИЯ ПОДВИЖНЫХ ПЕСКОВ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАЩИТНЫХ ЛЕСНЫХ ПОЛОС ВДОЛЬ ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ	615
Лесов Кувандык Сагинович, Хуршида Абдимуминовна	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARIDA INVESTITSIIYA MUHITINI YAXSHILASH OMILLARI.....	621
Qosimova Nodira Saidovna	
QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA RENTABELLIKNI OSHIRISH STRATEGIYALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	627
Sanjarbek Sotvoldiyev Dilshodbek o'g'li, Qodirov Zohidjon Eraliyevich	



YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATI TEKSHIRUVLARIGA OID ILMIY TALQINLARNING TAHLILI.....	632
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
QUYOSH ISSIQXONALARIDA QUYOSH ENERGETIK QURILMALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA TEXNIK YECHIMLARI	640
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	
IT-KORXONALARIDA INVESTITSIYA VA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI TAHLILI.....	648
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN LOYIHALAR TAHLILI	655
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПОДОТРАСЛЕЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА.....	666
Уролова Севара Бехзод кизи	
MAHALLIY BUDJETLARNI SHAKLLANTIRISH VA TAQSIMLASH JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKI: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	672
Shukurova Parizod, Soatova Nodira Boboxonovna	



MAHALLIY BUDJETLARNI SHAKLLANTIRISH VA TAQSIMLASH JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKI: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL

Shukurova Parizod

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti DMXM-15 2-bosqich magistranti

E-mail: safaraovaparizod05@gmail.com

Soatova Nodira Boboxonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

E-mail: nodirasoatova1979@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy budjetlarni shakllantirish va taqsimlash jarayonida fuqarolar ishtirokining ahamiyati hamda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tashabbusli budjet tizimining natijalari tahlil qilingan. Tadqiqotda "Ochiq budjet" axborot portali orqali fuqarolar tomonidan ilgari surilgan loyihalar, ularning hududlar kesimidagi taqsimoti va moliyalashtirish ko'rsatkichlari o'rganilgan. Shuningdek, fuqarolar tashabbuslari, g'olib loyihalar soni va hududlardagi ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil asosida baholangan. Tadqiqot natijalari fuqarolar ishtirokidagi budjetlashtirish jarayoni mahalliy infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim mexanizm ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ushbu tizimni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, tashabbusli budjetlashtirish, ochiq budjet, fuqarolar ishtiroki, jamoatchilik nazorati, budjet jarayoni, ijtimoiy loyihalar, hududiy rivojlanish, korrelyatsion tahlil, davlat moliyasi.

Abstract. This article analyzes the importance of citizen participation in the process of forming and distributing local budgets and evaluates the outcomes of the participatory budgeting system based on public opinion. The study examines projects proposed by citizens through the "Open Budget" information portal, their regional distribution, and financing indicators. In addition, the relationship between citizen initiatives, the number of winning projects, and the unemployment rate in regions was assessed using correlation analysis. The research findings demonstrate that participatory budgeting serves as an important mechanism for developing local infrastructure, identifying social issues, and ensuring the efficient use of budget funds. Furthermore, scientific and practical recommendations were developed to improve this system.

Keywords: local budget, participatory budgeting, open budget, citizen participation, public control, budget process, social projects, regional development, correlation analysis, public finance.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль участия граждан в процессе формирования и распределения местных бюджетов, а также результаты системы инициативного бюджетирования, основанной на общественном мнении. В исследовании изучены проекты, предложенные гражданами через информационный портал «Открытый бюджет», их территориальное распределение и показатели финансирования. Кроме того, на основе корреляционного анализа оценена взаимосвязь между гражданскими инициативами, количеством победивших проектов и уровнем безработицы в регионах. Результаты исследования показали, что участие граждан в бюджетном процессе является важным механизмом развития местной инфраструктуры, выявления социальных проблем и повышения эффективности использования бюджетных средств. Также разработаны научно-практические рекомендации по дальнейшему совершенствованию данной системы.

Ключевые слова: местный бюджет, инициативное бюджетирование, открытый бюджет, участие граждан, общественный контроль, бюджетный процесс, социальные проекты, региональное развитие, корреляционный анализ, государственные финансы.



KIRISH

So'nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimida shaffoflikni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda fuqarolarni budjet jarayonlariga jalb etish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy boshqaruv tizimida fuqarolarni davlat qarorlarini qabul qilish jarayonlariga jalb etish demokratik boshqaruvning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy budjetlarni shakllantirish va taqsimlash jarayonida fuqarolar ishtirokini ta'minlash hududiy muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda so'nggi yillarda joriy etilgan tashabbusli budjetlashtirish mexanizmi davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

“Ochiq budjet” axborot portali orqali fuqarolar tomonidan turli ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalar taklif etilib, ular jamoatchilik ovozi asosida saralab olinmoqda. Ushbu tizim orqali aholining budjet mablag'larini taqsimlash jarayonida bevosita ishtiroki ta'minlanmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mahalliy budjetlarni shakllantirish va taqsimlash jarayonida fuqarolar ishtirokining ahamiyatini baholash hamda tashabbusli budjet loyihalarining natijalarini tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashabbusli budjetlashtirish konsepsiyasi ilk bor Braziliyaning Porto-Alegre shahrida joriy etilgan bo'lib, keyinchalik dunyoning ko'plab mamlakatlarida mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish vositasi sifatida qo'llanila boshladi.

Xorijiy olimlar L. Avritzer, B. Wampler va Y. Sintomer tashabbusli budjetlashtirishning demokratik boshqaruv tizimidagi ahamiyatini tadqiq etib, mazkur mexanizm fuqarolarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishini ta'kidlaganlar.

Shuningdek, Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tashabbusli budjetlashtirish hududiy rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash hamda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim instrument sifatida baholangan.

MDH davlatlarida ham tashabbusli budjetlashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A. Shulga va N. Vagin kabi olimlar ushbu mexanizmni mahalliy boshqaruvni rivojlantirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etganlar.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda tashabbusli budjetlashtirish tizimi faol rivojlanib, “Ochiq budjet” axborot portali orqali fuqarolarning davlat moliyasini boshqarish jarayonlaridagi ishtiroki kengayib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mahalliy budjetlarni shakllantirish va taqsimlash jarayonida fuqarolar ishtirokining ahamiyatini aniqlash hamda tashabbusli budjetlashtirish tizimining samaradorligini baholash maqsadida umumilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini davlat moliyasi, mahalliy boshqaruv va jamoatchilik ishtiroki konsepsiyalariga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etdi. Xususan, tashabbusli budjetlashtirishning nazariy jihatlarini o'rganishda ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali tashabbusli budjetlashtirish mexanizmining iqtisodiy mazmuni, uning demokratik boshqaruv tizimidagi o'рни va mahalliy budjet jarayonlaridagi roli tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Besh yildan buyon mamlakatimizda amal qilayotgan tashabbusli budjetlashtirish tizimi ushbu mexanizmning fuqarolar hayotidagi ahamiyatini hamda jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim tayanch vositalardan biri ekanligini yana bir bor namoyon etdi.

2021-yilda fuqarolar tomonidan budjet jarayoni doirasida aniqlangan dolzarb muammolarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan aholini davlat budjetini shakllantirish jarayonlariga hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etishga undovchi qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Fuqarolarning budjet jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-5072-son Farmoniga muvofiq 2021-yil 1-iyuldan boshlab mamlakatning barcha tuman va shaharlarida jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish va moliyalashtirishga mo'ljallangan “Ochiq budjet” axborot portali to'liq faoliyat ko'rsata boshladi.

2021-yilda yangilangan talqinda joriy etilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayonining birinchi bosqichi uchta asosiy bosqichdan iborat bo'lib, ushbu jarayon davomida “Ochiq budjet” axborot portalida fuqarolar tomonidan 41 125 ta taklif ro'yxatdan o'tkazildi.

Qabul qilingan takliflarni tahlil qilish natijalariga ko'ra, 13 853 ta taklif (umumiy takliflarning 34 foizi) fuqarolar uchun muhim bo'lgan ichki yo'llarni ta'mirlash va tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan. Eng ko'p takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasidan (6 523 ta), undan keyin Buxoro viloyatidan (5 651 ta) hamda Namangan viloyatidan (4 414 ta) kelib tushgan.

Qabul qilingan takliflarning 21 833 tasi (53 foizi) hududiy ishchi komissiyalar tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq deb topilib, ovoz berish jarayoniga qo'yildi. Ovoz berish jarayonida butun mamlakat bo'ylab 1 149 000 nafar fuqaro turli tashabbuslarni qo'llab-quvvatladi. Jumladan, portal orqali ro'yxatdan o'tib berilgan ovozlar soni 95 000 ta, qisqa SMS-xabarlar orqali 988 400 ta, internetdan foydalanish imkoniyati cheklangan aholi uchun tashkil etilgan oflayn ovoz berish orqali esa 65 900 ta ovoz berilgan.

Bundan tashqari, Prezidentning 2021-yil 23-sentabrdagi PF-5250-son Farmoniga muvofiq tuman va shahar hokimliklari huzurida tashkil etilgan fuqarolik tashabbuslari jamg'armalari uchun davlat budjetidan jami 117,4 mlrd so'm mablag' ajratilishi belgilandi.

Mazkur mablag'larning 57,9 mlrd so'mi jamg'armasi 1 mlrd so'mdan kam bo'lgan tuman va shaharlarga, 59,5 mlrd so'mi esa "Ochiq budjet" portali orqali 100 tadan ortiq taklif kelib tushgan hududlarga yo'naltirildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, ovoz berish jarayonida qatnashgan 22 966 ta taklif orasidan umumiy qiymati 530,5 mlrd so'm bo'lgan 1 599 ta loyiha g'olib deb e'lon qilindi.

"Inson qadr-qimmati va faol mahallani qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida 2022–2026-yillardan boshlab tuman va shahar budjetlarining kamida 5 foizini fuqarolar tashabbuslari asosidagi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirish belgilandi. Ushbu maqsadlar uchun tuman va shahar budjetlaridan 1,5 trln so'm, shuningdek, mahalliy budjetlarning qo'shimcha mablag'laridan 400 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

2022-yilda amalga oshirilgan tashabbusli budjet jarayonlari doirasida mamlakat aholisi 131 mingga yaqin loyihani qo'llab-quvvatladi. Tanlov bosqichidan o'tgan takliflar orasidan jamoat manfaatlariga mos keluvchi 77 900 ta loyiha ovoz berish uchun taqdim etildi. Fuqarolar tomonidan ushbu loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun 14 millionga yaqin ovoz berildi.

Prezidentning 2022-yil 7-apreldagi PF-197-son hamda 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qarorlariga muvofiq 2022-yil davomida 2000 dan ortiq ovoz to'plagan, biroq dastlab g'olib deb topilmagan 503 ta loyiha qo'shimcha ravishda moliyalashtirish uchun tanlab olindi. Yil yakuniga kelib 4 136 ta loyihani moliyalashtirish uchun 2,5 trln so'm mablag' yo'naltirildi.

2023-yilda fuqarolar tomonidan tashabbusli budjet jarayoni doirasida 105 mingdan ortiq loyiha ilgari surildi. Ulardan 67 100 ta loyiha jamoat manfaatlariga mos deb topilib, ovoz berish bosqichiga qo'yildi. Fuqarolar tomonidan loyihalarga 34 million martadan ortiq ovoz berildi.

G'olib loyihalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ular asosan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan:

- 1 605 ta loyiha – umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash;
- 1 076 ta loyiha – ichki yo'llarni ta'mirlash;
- 595 ta loyiha – sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash;
- 184 ta loyiha – maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash;
- 125 ta loyiha – ko'cha yoritgichlarini o'rnatish yoki ta'mirlash;
- 63 ta loyiha – ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan.

Prezidentning 2023-yil 10-apreldagi tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan qaroriga muvofiq 2000 dan ortiq ovoz to'plagan, biroq g'olib deb topilmagan 1 309 ta loyihani amalga oshirish uchun 1,311 trln so'm mablag' ajratildi. Yil yakunida umumiy qiymati 4,183 trln so'm bo'lgan 4 115 ta loyiha moliyalashtirildi.

"Ochiq budjet" portali ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda o'tkazilgan ikki mavsum davomida 63 049 ta loyiha taklif etilgan. Shundan 52 261 tasi (82,9 foiz) saralash bosqichidan o'tgan, 10 788 tasi (17,1 foiz) esa rad etilgan. Fuqarolar tomonidan 20,8 milliondan ortiq ovoz berilishi natijasida 4 774 ta loyiha g'olib deb topilgan (1-mavsumda – 2 824 ta, 2-mavsumda – 1 950 ta). Bu ko'rsatkich jami taklif etilgan loyihalarning 7,6 foizi, saralash bosqichidan o'tgan loyihalarning esa 9,1 foizini tashkil etadi.

Tahlillarga ko'ra, aholining loyiha jarayonidagi o'rtacha ishtirok darajasi 28 foizni tashkil etgan bo'lsa, fuqarolarning qoniqish darajasi 2-mavsumda 80 foizga yetib, 1-mavsumdagi 76 foiz ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan.

Hududlar kesimida o'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalari ishsizlik darajasi va g'olib loyihalar soni o'rtasida salbiy bog'liqlik ($-0,35$) mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan hududlarda jamoatchilik tashabbuslari va g'olib loyihalar soni kamroq bo'lishi mumkinligini anglatadi. Ushbu holat iqtisodiy omillarning aholining jamoat tashabbuslaridagi faolligiga ta'sir etishi bilan izohlanishi mumkin.

Hududlar kesimida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari ishsizlik darajasining loyihalarga ta'siri turli hududlarda har xil bo'lishini ham ko'rsatdi. Bu esa har bir hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, aholi bandligi darajasi hamda tadbirkorlik muhitining rivojlanganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin (1-jadval).



1-jadval. “Tashabbusli budget” loyihasi natijalari ko’rsatkichlarining Ishsizlik darajasi bilan bog’liqligi harorat xaritasi¹

Hudud	Tashabbuslar	Ovozlar	G’olib loyihalar	Ajratilgan summa
Ishsizlik darajasi 7% dan yuqori bo’lgan hududlar				
Surxondaryo viloyati	0.00	-0.45	-0.65	-0.51
Sirdaryo viloyati	0.16	0.29	-0.65	0.04
Qashqadaryo viloyati	0.13	0.38	-0.26	-0.25
Jizzax viloyati	-0.55	-0.62	-0.43	-0.61
Qoraqalpog’iston Respublikasi	-0.53	-0.60	-0.41	-0.70
Farg’ona viloyati	-0.48	-0.17	-0.70	-0.66
Andijon viloyati	-0.10	-0.08	-0.52	-0.41
Namangan viloyati	0.42	0.08	-0.19	0.08
Ishsizlik darajasi 6.5% – 7% oralig’ida bo’lgan hududlar				
Toshkent viloyati	0.16	0.55	-0.30	0.00
Samarqand viloyati	-0.46	0.16	-0.53	-0.37
Xorazm viloyati	-0.58	0.36	-0.31	-0.21
Buxoro viloyati	-0.50	-0.43	-0.66	-0.59
Ishsizlik darajasi 6.5% dan past bo’lgan hududlar				
Navoiy viloyati	-0.03	-0.02	-0.29	-0.29
Toshkent shahri	-0.22	-0.48	-0.25	-0.22

Ko’plab hududlarda, xususan Qoraqalpog’iston Respublikasida (tashabbuslar –0,53; ovozlar –0,60; summa –0,70), Buxoro viloyatida (tashabbuslar –0,50; g’oliblar –0,66; summa –0,59), Jizzax viloyatida (tashabbuslar –0,55; ovozlar –0,62; summa –0,61) hamda Farg’ona viloyatida (g’oliblar –0,70; summa –0,66) ishsizlik darajasi bilan loyiha ko’rsatkichlari o’rtasida yuqori darajadagi salbiy korrelyatsiya kuzatilgan. Bu hududlarda ishsizlik darajasining yuqoriligi aholining ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko’rsatib, loyihalarda ishtirok etish darajasining pasayishiga sabab bo’lgan bo’lishi mumkin.

Ayrim hududlarda esa, jumladan Toshkent viloyatida (tashabbuslar – 0,16; ovozlar –0,55), Sirdaryo viloyatida (tashabbuslar –0,53; ovozlar – 0,29; summa – 0,04) va Qashqadaryo viloyatida (tashabbuslar – 0,13; ovozlar – 0,38) ishsizlik darajasi bilan loyiha ko’rsatkichlari o’rtasida nisbatan ijobiy korrelyatsiya aniqlangan. Bu hududlarda aholining ijtimoiy faolligi yuqori bo’lib, ular ishsizlik darajasi mavjud bo’lishiga qaramay jamoatchilik tashabbuslarida faol ishtirok etayotgan bo’lishi mumkin. Shu bilan birga, loyihalarining natijalariga boshqa omillar, jumladan aholining yosh tarkibi, ma’lumot darajasi, bandlik turi, hududiy rivojlanish darajasi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Umuman olganda, ishsizlik darajasi “Tashabbusli budget” loyihasining muvaffaqiyatiga ta’sir ko’rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Hududlardagi ishsizlik darajasini hisobga olgan holda loyihani takomillashtirish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali uning samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini kuchaytirish mumkin.

Loyihalar (tashabbuslar) samaradorligini baholash maqsadida muvaffaqiyat indeksi hisoblab chiqildi va tahlil qilindi. Muvaffaqiyat indeksi – g’olib deb topilgan loyihalar sonining umumiy tashabbuslar soniga nisbatan ulushini ifodalovchi asosiy ko’rsatkich bo’lib, u tashabbusli loyihalarining muvaffaqiyat darajasini baholash imkonini beradi.

Muvaffaqiyat indeksi tahlillariga ko’ra, sog’liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash loyihalari eng yuqori ko’rsatkichga ega bo’lib, 26,0 ni tashkil etgan. Bu ushbu sohadagi loyihalarining samaradorligi yuqori ekanligini ko’rsatadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini ta’mirlash loyihalari (20,4) hamda boshqa ta’lim muassasalarini ta’mirlash loyihalari (17,7) ham yuqori muvaffaqiyat ko’rsatkichlariga ega bo’lgan.

Bundan tashqari, umumta’lim maktablarini ta’mirlash loyihalari ham 17,2 muvaffaqiyat indeksini ko’rsatgan bo’lib, bu ta’lim muassasalari infratuzilmasining jamiyat uchun muhimligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, musiqa maktablari va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini ta’mirlash (10,2) hamda sport muassasalarini ta’mirlash (9,4) yo’nalishlari ham fuqarolar tomonidan faol qo’llab-quvvatlangan.

1 “Tashabbusli budget” loyihasi natijalari “Open budget” portali ma’lumotlari asosida hisoblangan



Ichki yo'llarni, jumladan piyodalar yo'laklari va yo'l o'tkazgichlarni ta'mirlash loyihalari 7,4 ko'rsatkich bilan o'rtacha darajadagi muvaffaqiyatga erishgan. Boshqa yo'nalishlar, masalan obodonlashtirish, aholi dam olish maskanlarini tashkil etish hamda qabristonlarni tartibga keltirish kabi loyihalar ham amalga oshirilgan bo'lsa-da, ular nisbatan pastroq muvaffaqiyat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan.

Ma'lumot uchun, "Tashabbusli budjet" loyihasining 2024-yilgi ikki mavsum yakunlari bo'yicha respublika aholisi ustuvor deb hisoblagan yo'nalishlar ichki yo'llarni ta'mirlash, ta'lim muassasalari hamda sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash ishlari bo'lib qolmoqda (4-diagramma). Jumladan, ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha 1 686 ta loyiha g'olib deb topilgan bo'lib, bu umumiy g'olib loyihalarning 35 foizini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tashabbusli budjetlashtirish mahalliy budjetlarni shakllantirish va taqsimlash jarayonida fuqarolar ishtirokini ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. "Ochiq budjet" portali orqali fuqarolar tomonidan ilgari surilgan loyihalar hududiy infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini modernizatsiya qilish hamda ichki yo'llarni ta'mirlash kabi muhim ijtimoiy masalalarni hal etishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hududlarda ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan joylarda fuqarolar tashabbuslari soni nisbatan kamroq kuzatilgan. Bu holat iqtisodiy omillar aholining ijtimoiy faolligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Fuqarolarning budjet jarayonlaridagi ishtirokini oshirish maqsadida axborot-tushuntirish ishlarini kengaytirish zarur.

2. Qishloq hududlarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali "Ochiq budjet" platformasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

3. Tashabbusli budjet loyihalarining monitoringi va baholash jarayonlariga jamoatchilik tashkilotlari hamda mustaqil ekspertlarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

4. Hududlar kesimida iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish zarur.

5. Ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma sohalariga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish ulushini oshirish orqali ijtimoiy samaradorlikni kuchaytirish mumkin.

Umuman olganda, tashabbusli budjetlashtirish tizimi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat moliyasi tizimining shaffofligini oshirish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim instrumentlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avritzer L. Participatory Institutions in Democratic Brazil. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2009. – 208 p.
2. Wampler B. Participatory Budgeting in Brazil: Contestation, Cooperation and Accountability. – University Park: Pennsylvania State University Press, 2004. – 304 p.
3. Sintomer Y., Herzberg C., Röcke A. Participatory Budgeting Worldwide: Updated Version. – Bonn: Dialog Global, 2012. – 93 p.
4. Shah A. Participatory Budgeting. Public Sector Governance and Accountability Series. – Washington, DC: World Bank, 2007. – 271 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolarning budjet jarayonida ishtirokini kengaytirishga doir farmon va qarorlari. – Toshkent, 2021–2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. "Ochiq budjet" axborot portali ma'lumotlari. – Elektron resurs. – URL: <https://openbudget.uz> (murojaat qilingan sana: 2026).
7. O'zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi, 2023.
8. Вагин Н. В. Инициативное бюджетирование: теория и практика. – Москва: Финансы и статистика, 2018. – 256 с.
9. Шульга А. Ю. Participatory Budgeting as a Tool for Local Governance Development. – Moscow, 2017. – 198 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100